

## Ish Joylarida Sun'iy Intellektning Huquqiy Maqomi Va Xodimlarga Ta'siri

*Gulyamov Said Saidakhrarovich<sup>1</sup>, Avliyoqulov Bekmirza Bektemirovich<sup>2</sup>*

**Annotatsiya:** XXI asrning birinchi choragi o'zi bilan texnologiyalar asrining yangi, sun'iy intellekt va robotlar deb nomlanuvchi qismi bilan kirib keldi. Juhon va mamlakatlar siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida vujudga kelayotgan munosabatlardan bundan 10-15 yil oldingi aynan shu turdag'i munosabatlardan tubdan farq qilmoqda. Birgina mehnat munosabatlarini, ish joylaridagi holatlarni olib qaraydigan bo'lsak, bu yerda boshqa bir ishtirokchi, sun'iy intellekt va robotlar paydo bo'ldi. Bu holat o'z o'rnida ularning huquqiy maqomi, harakati va ulardan foydalanish natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan ta'sirlarga nisbatan javobgarlik masalalarining qay yo'sinda yechilishi lozimligini aniqlash ehtiyoji paydo bo'ladi. Biz mazkur ilmiy tadqiqotimiz davomida ish joylarida sun'iy intellekt va robotlardan foydalanish talablari, ularning xodimlarga nisbatan "huquq" va "majburiyat"lari, uni ta'minlash choralarini ishlab chiqishning ahamiyati xususida so'z yuritamiz.

Ushbu ilmiy maqolada nafaqat tartibga soluvchi yangi huquqiy normalarni yaratish, balki bugungi kunda jamiyat hayotida mavjud har qanday munosabatlardan jarayonlarini belgilab beruvchi qonun hujjatlaridan oqilona foydalanish lozimligi ta'kidlanadi. Insonlar o'rtasidagi munosabatlardan tartibini huquqiy jihatdan belgilab beruvchi huquqiy tizimlarni sun'iy intellekt va robotlarga tadbiq qilishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqish ham mazkur tadqiqotimiz maqsadidir.

**Kalit So'zlar:** Sun'iy intellekt, robot, texnologiya, tendensiya, tamoyil, algortim.

### Kirish

So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasi qonunchilik tizimida ijtimoiy hayotga jadal kirib kelayotgan yangi sun'iy intellekt bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish maqsadida ijobjiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan har bir sohani raqamlashtirish, mehnat samaradorligiga erishishning yangicha texnologiyalarini o'zlashtirish va boshqarishda axborot texnologiyalarini va vositalaridan unumli foydalanish bo'yicha amaliy ishlar qilinmoqda. Misol uchun, Ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizning sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanuvchi dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kirishiga erishish, shuningdek, "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida [1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qaror bilan ushbu sohadagi ustuvor maqsad va vazifalarni sifatida birinchilardan bo'lib sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani shakllantirish lozimligining o'zi ham bu borada qilinishi lozim bo'lgan ishlarning ko'pligidan darak beradi.

Bugungi sodir bo'layotgan holatlarni shuni ko'rsatmoqdaki, agar sun'iy intellekt va uning natijasida yuzaga kelayotgan salbiy omillar bilan erta kurashmasak, uning oqibatlari mamlakatimiz uchun og'ir bo'lishi mumkin. Bu borada butun dunyoda ehtiyyot choralarini ko'rilib sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani shakllantirish lozimligining o'zi ham bu borada qilinishi lozim bo'lgan ishlarning ko'pligidan darak beradi.

<sup>1</sup> Toshkent davlat yuridik universiteti, Kiber huquqi kafedrasini mudiri yuridik fanlari doktori, professor Said.gulyamov1976@gmail.com

<sup>2</sup> Toshkent davlat yuridik universiteti, Ommaviy huquq fakulteti tyutori bekavliyoqulov@gmail.com



mumkin. Xususan, jahon miqyosida o'n minglab ayollarni kiber tashviqot yo'llari orqali terror guruhlari joylashgan hududlarga ko'chib o'tishga targ'ib qilib kelinmoqda. Indoneziyadan tashqari O'zbekiston ham bu muommoga qarshi kurashish orqali yuzlab ayollarni o'z ichiga olgan minglab fuqarolarini terror tashviqotining qopqoniga tushmasliklari, o'z nazoratidagi hududlar ularning ta'siri ostiga o'tmasligiga qarshi kurashmoqda [2].

**Material va metodlar.** Sun'iy intellektning maqolaning kirish qismida keltirilgan salbiy jihatlaridan tashqari juda ko'plab ijobiy tomonlari mavjud bo'lib, ushbu tadqiqot ishimizda bugungi kunda paydo bo'layotgan hayotiy vaziyatlardan dalillar keltirish orqali ko'proq ijobiy jihatlarini yoritishga harakat qilamiz. Shuningdek, tadqiqot maqsadiga erishishda taqqoslash metodidan ham foydalangan holda yondashib, o'quvchining tushunishini osonlashtirish hamda ushbu maqolani o'qish jarayonida hayolidagi sun'iy intellekt va kiber huquqi tushunchalari takomillashtiladi. Misol sifatida sun'iy intellektning jadal o'sishi sog'liqni saqlash diagnostikasini osonlashtirishdan tortib, ijtimoiy tarmoqlar orqali odamlar bilan aloqalarni o'rnatish va avtomatlashtirilgan vazifalar orqali mehnat samaradorligini oshirishgacha bo'lган ko'plab imkoniyatlarni yaratayotganligini [3] keltirishimiz mumkin.

Tadqiqot ishida foydalanilgan materiallar xususida to'xtalishdan oldin, sun'iy intellekt o'zi nima ekanligi, uning qisqacha tarifini keltirib o'tish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Xo'sh, sun'iy intellekt o'zi nima? Sun'iy intellekt tushunchasi 1950-yilda paydo bo'lishiga qaramasdan, u odamlarning qiziqishlarini azaldan jalb qilib kelgan hamda hozirgi kunda ham davom etib kelmoqda [4]. Dastlab faqat fantastik filmlar va kelajak haqidagi hayoliy tasavvurlarimizda mavjud bo'lган sun'iy intellekt tushunchasi texnika imkoniyatlari natijasida bugungi kunimizda tobora ommalashib bormoqda. Biz har kuni ob-havoni aniqlashda, yangiliklarni o'qishda hamda qayergadir bormoqchi bo'lanimizda manzilimizni aniqlashda va hattoki, bo'sh vaqtimizni o'tkazishda sun'iy intellektga tayanib yashashga odatlandik. O'z navbatida bu sohani ilmiy va huquqiy jihatdan tadqiq qilish jarayonlari allaqachon boshlangan bo'lib, ko'plab samarli yutuqlarga erishildi. Xususan, ushbu sohada yurtimizda ham bir qancha olimlar ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Mazkur ilmiy maqolani yozishda I.Rustambekov, S.Gulyamov, A.Li kabi mamlakatning ko'zga ko'ringan olimlarining ilmiy izlanishlariga murojaat qilindi. Bundan tashqari, xorijiy mutaxassislardan D.Kirby, K.Markel, A.Mildner, J.Lipson va A.Dikslarning sun'iy intellekt va robotlarni ish joyida huquqiy tartibga solish yuzasidan amalga oshirgan tadqiqotlarini atroflicha o'rganib, ulardan foydali ma'lumotlar olindi.

**Tadqiqot natijasi.** Bugungi kunda sun'iy intellekt va algoritmlar tibbiy muolajalarni amalga oshirish, jinoyat qonunchiligini qo'llash, moliya va mehnat sohalarida qaror qabul qilish vazifasini bajarish orqali tobora inson ishchi kuchining o'rmini egallab borayotganligini kuzatayapmiz. O'z o'rnida bu kabi holatlar bir qancha ijtimoiy muommolarni keltirib chiqarish ehtimoli ortib borayotganligi ko'plab olimlarning sun'iy intellektning insoniyat jamiyatida munosib qaror qabul qilish tizimini yaratish ustida bosh qotirishiga turki bo'layapdi. Xususan, ish bilan bog'liq hujjatlarni tez va samarali tayyorlash uchun umumiyligi sun'iy intellekt dasturlaridan foydalanish haqida ko'p gapiriladi. Sun'iy intellekt dasturlari ish joyiga ta'sir qiluvchi o'zgarish va tendensiyalarni aniqlash uchun katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilishi mumkin. Garchi, sun'iy intellekt ish beruvchilar xodimlar bajarishi uchun ko'proq vaqt talab qiladigan vazifalarni tezda hal qilish imkoniyatiga ega bo'lsa-da, ish beruvchilar bir nechta sabablarga ko'ra, shu jumladan maxfiylik bilan bog'liq muammolarga ko'ra sun'iy intellekt ilovalari bilan ma'lumotlarni almashishda ehtiyyot bo'lishlari kerak [5].

Ish joyini tartibga solish jarayonida ishchilarni izlash, saralash va o'zlarining xodimlarini boshqarishda ish beruvchilar borgan sari sun'iy intellekting imkoniyatlari suyanib qolayapdi. Ushbu rivojlanayotgan jarayon ishchi-xodimlar orasida diskriminatsiya, bosim qilish yoki boshqa turdag'i nohaqliklar sodir bo'lishidan qo'rquv hissini oshirishi turgan gap. Tadqiqotning ilmiy natijasi sifatida, biz yuqoridaqgi xavotirlarni batafsil o'rganib, ular sodir bo'lган taqdirda mavjud qonunlarni qay tartibda qo'llash mumkinligini ko'rib chiqqan holda ikkita aniq muommoga e'tibor qaratamiz: himoya qilinuvchi asosiy huquqlar bo'lган irq, jins yoki nogironlik kabi holatlarga tahdid soluvchi omillar va sun'iy intellekt tomonidan egallab olinishi mumkin bo'lган xodimlarning shaxsiy ma'lumotlari. Maqolada sun'iy intellektning kelib chiqish tarixi va uning ish joyidagi o'sib borayotgan roli haqida biroz ma'lumot



berib o'tgan holda sun'iy intellekt yordamida ish yuzasidan qaror qabul qilish sababli kelib chiqishi mumkin bo'lgan diskriminatsiya va uni huquqni qo'llash orqali qanday yechish yo'lllarini muhokama qilamiz. Shuningdek, boshqariluvchi ma'lumotlar tizimi qanday qilib ishchi-xodimlarning shaxsiy manfaatlari va ular bajaradigan vazifalarga tahdid solishi mumkinligini hamda ularni hal qilishga qaratilgan mavjud huquqiy asoslarni tadqiq qilishni maqolaning asosiy maqsadi sifatida olamiz. Shuningdek, maqola Yevropa Ittifoqi misolida qat'iy nazorat rejimiga ega bo'lgan huquqiy makon sifatida ijobjiy natijalarga erishayotganligini boshqalar bilan taqqoslab ko'rsatadi. Biz ushbu maqolada ish joylarida sun'iy intellekt qo'llanilishining ortishigina disriminatsiya, shaxsiy huquq va erkinliklar tahdidlarni ko'paytirayotganligini emas, balki, amalda mavjud qonunlarga yetarli darajada murojaat qilinmayotganligi sabab bo'layotganligi fikri ilgari suriladi. Ammo, mavjud javobgarlik qoidalari rivojlanayotgan raqamli texnologiyalar tufayli yuzaga keladigan xavf-hatarlar bo'yicha yechimlarni taklif qilsada, ba'zida sodir bo'lish ehtmoli bor muvaffaqiyatsizlikni hisobga olsak, natijalar har doim ham mos kelmasligi mumkin:

Quyidagi ishtirokchilar o'rtaida zararni adolatli va samarali taqsimlash tartibini joriy qilish mumkin:

- Nomaqbul harakatlari zarar keltirgan tomon; yoki
- Zarar kelib chiqqan nomaqbul harakatdan manfaatdor bo'lgan tomon; yoki
- Yuzaga kelgan xavfni nazorat qilgan tomon; yoki
- Eng arzon xarajatlardan qochish yoki eng arzon sug'urta oluvchilar [6].

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, sun'iy intellekt bilan bog'liq huquqbazarliklar odatda jamiyatda mavjud munosabatlar doirasida sodir bo'lib, faqat ishtirokchilarning xususiyatlaridan kelib chiqib tasniflash mumkin. Buning uchun esa, yangicha munosabat ishtirokchisi va sababchisi bo'lgan sun'iy intellekt nima ekanligini aniqlab olish zarur.

Sun'iy intellekt tushunchasini qisqa va aniq qilib tushuntirish biroz mushkul bo'lib, odatda boshqa mexanik o'zlashtirish, algoritmiq va avtomatik qaror qabul qilish kabi tushunchalar bilan birga qo'llaniladi [7]. Lekin, ushbu tushunchalarning har birining o'ziga xos ma'nolari bo'lib, hech biri sun'iy intellekt tushunchasi bilan aynan bir xil emas. Biz ushbu maqolada sun'iy intellekt tushunchasini keng ma'lumotlar bazasini yig'adigan, taxminlarni ishlab chiqadigan kompyuter texnologiyalari, insonning qaror qabul qilishiga yordam beradigan yoki mutlaq ushbu vazifalarni bajaradigan tizim sifatida ta'riflaymiz. Ushbu tizimlar qo'yilgan vazifani bajarish uchun juda katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali ishga tushirilib, undan so'ng erishilgan natija orqali yangi holatlar va vaziyatlarni yechishdagi samarali yo'llarni ishlab chiqadi. Sun'iy intellektning ba'zi turlari inson omilisiz yig'lishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar yordamida bilim olish imkonini beruvchi avtomatik o'rganuvchi qurilmalardan foydalanadi. Sun'iy intellekt tizimlari xattoki insonlarning kirishi cheklangan ma'lumotlar bazalariga kirib, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan voqe'a-hodisalarni oldindan taxmin qilib berishi va xattoki, sun'iy intellekt tizimini yaratuvchilarning o'zlarini ta'riflab yoki tushuntirib bera olmaydigan ma'lumotlarga kirib o'z taxminlarini ishlab chiqishi mumkin.

Sun'iy intellektni takomillashtirish ustida ishlayotgan olimlar yaratilyotgan ushbu yangilik zamonaviy texnologiyalar yordamida turli mehnat jarayonlarida inson omilini kamaytirishni ko'zlagan. Biroq, ushbu holatda sodir etilgan xatti-harakatlarga nisbatan javobgarlik kimning zimmasida bo'lishi va qay tarzda ta'sir choralarini qo'llash vazifasi birinchi navbatda yuridik sohada tadqiqot oluvchi odamlarning zimmasiga tushadi. Insonga muqobil bo'lgan sun'iy intellekt tizimini yaratishga bo'lgan dastlabki urunishlar turli xil muommoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qilish ko'nikmalarini o'rgatishdan boshlangan. "Umumiyl" sun'iy intellektni yaratishga bo'lgan urunishlar katta muvaffaqiyatsizlikka uchradi [8]. Shunga qaramay, ma'lum chegaralarda, muayyan vazifalarni va muommolarni bajarishga mo'ljallangan sun'iy intellektga asoslangan dasturlar yaratish sohasida misli ko'rilmagan muvaffaqiyatga erishilmoqda. Sun'iy intellektning ajoyib kashfiyotlaridan misol qilib turli xil mobil va kompyuter o'yinlari, ovoz tanish va tarjima qilish funksiyalari hamda ularni matnga aylantirish, elektron pochtaga kelgan xabarlarni yuboruvchilarga ko'ra saralash funksiyalarini keltirish mumkin. To'g'ri, bu kabi dasturlarning barchasini birdek amalga oshiruvchi "Umumiyl" sun'iy intellektni



yaratish g‘oyasi hozircha amalga oshmagan bo‘lsa ham, mazkur yutuqlar texnika va ilm-fan sohasida tub burilish yasashga sabab bo‘ldi. Sun’iy intellektdan foydalanish tobora jamiyatda ustun mavqega ega bo‘lib brogan holda miliitsiya, sud, garov, kredit va ish bilan bandlik kabi jamiyatda keng qo‘llaniladigan atamalar qatoriga kirib bormoqda [9]. Sun’iy intellektga asoslangan qurilmalar insoniyat uchun muhim va ijtimoiy ta’siri katta bo‘lgan sohalarda keng qo‘llanilayotgani mazkur tizimlarning adolatliliqi, ochiqligi va shaffofligi to‘g‘risidagi xavotirlarni keltirib chiqarmoqda. Chunki, sun’iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari juda katta, mijozdan tortib himoya qilish, kredit qarorlari, chatbotlar, savdo algoritmlari, hisobot tahlillari va boshqa ko‘plab misollar [10]. Mazkur holatda e’tiborimiz markaziga dunyo bo‘ylab turli xil bo‘lgan demografiya, noto‘g‘ri qarashlarga ega jamiyatlar va shaxslarni taqqoslaganda yuzaga keladigan diskriminatsiya yokiadolatsizliklarning paydo bo‘lish xavfini qo‘yamiz. Shu sababli, bizga ikki tamoyil: ochiqlik va shaffoflik juda muhim hisoblanadi. **Ochiqlik tamoyili** sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha majburiyatlarni va natijani, jamiyatga keltirishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarni aniq ko‘rsatish va ularni yumshatish yo‘llarini topish zaruratinini o‘z ichiga oladi. **Shaffoflik tamoyili** esa, sun’iy intellekt yordamida qabul qilingan qarorlar hamda nima sababdan aynan bunday qarorga kelinganligini tushuntirib berish jarayoni bilan bog‘lanadi.

Sun’iy intellekt tizimlari tomonidan ish joyini kuzatishning qonuniy oqibatlarini hal qilish uchun ish beruvchilarning qonuniy manfaatlari va xodimlarning shaxsiy huquqlari o‘rtasida muvozanatni saqlash juda muhimdir. Bun esa kuzatuv doirasi va maqsadini belgilaydigan, xodimlarning roziligini olish mexanizmlarini ta’minlaydigan va ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha mustahkam choralarini belgilovchi aniq va shaffof siyosatlarni ishlab chiqish orqali erishish mumkin. Bundan tashqari, amaldagi qonunlar va qoidalarga muvofiqligini ta’minalash uchun sun’iy intellekt tizimlarini muntazam ravishda baholashni o‘tkazish juda muhimdir [11].

Misol uchun, Ekologik vaziyat va ob-havo sohasidagi xodimlar yaqin yillarda sun’iy intellektga yoki avtomatik tizimlar va robotlar kabi texnologiyalarning boshqa yangi turlariga o‘z o‘rinlarini bo‘shatib berishlari mumkin. Inson mehnatining o‘rnini texnologiyalar egallashi haqidagi havotirlar yangilik hisoblanmay, atrof-muhit va ekologiya sohasida sun’iy intellektning rivojlanishi vaziyatni avvalgi holatidan ham yomonroq darajaga olib kelishi mumkinligi haqida uzliksiz muhokamalar yuz bermoqda. Yuqorida keltirilgan fikrlarning dolzarbligiga qaramasdan, ish beruvchilar tomonidan sun’iy intellekti xodimlar o‘rniga emas, balki, ularni boshqarish uchun foydalanishni qo‘llaydigan dasturlarni rivojlantirish zarurligini ilgari suramiz.

Bugungi kunda ish beruvchilar sun’iy intellekt tizimlarini ishchi kuchining xilma-hilligi va boshqaruv funksiyalarini baholash uchun moslashtirdi. Sun’iy intellekt qurilmalari ishga hujjat topshirganlarni sinovdan o‘tkazib, nomzodlarning ko‘rsatilgan lavozimga mosligini baholashda ish beruvchilar tomonidan qo‘llanilmoqda. Shuningdek, ish beruvchilar sun’iy intellekt yordamida qaysi xodim kompaniyada ishlash uchun eng nomunosib ekanligini aniqlamoqda. Ammo, Ish beruvchilar ushbu kelib chiqqan taxminlardan qotib qolgan tizimni samaraliroq tashkil qilishda yoki o‘ta muhim bo‘lgan loyihalardan chetlashtirish mumkin bo‘lgan xodimlarni aniqlashda foydalanishlari mumkin. Umumiy jihatdan ish beruvchilar sun’iy intellekt yordamidan ishchi kuchini boshqarishda, ba’zi hollarda esa butunlay boshqaruv sohasida foydalanmoqda. Ushbu jarayonda raqamlı tranzaksiyalar va ma’lumotlar oqimining global tabiatini izchil ma’lumotlarni himoya qilish standartlarini ta’minalash va yurisdiksiya masalalarini hal qilishda muommolarni keltirib chiqaradi. Ma’lumotlar maxfiyligi bilan bir qatorda, raqamlı ma’lumotlar xavfsizligini ta’minalash tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kiberjinoyatchilik faoliyatining o‘sishi va yuqori darajadagi ma’lumotlar buzilishi raqamlı tizimlarning zaifligini olib berdi va mustahkam xavfsizlik choralarini zarurligini ta’kidladi [12].

**Tadqiqot natijasi tahlili.** Ushbu o‘rinda tadqiqot natijasida sun’iy intellektdan foydalanish va ishchilarning o‘zaro munosabatlari orasidagi tafovut ikki jihatdan bir biridan farq qilishi aniqlandi. **Birinchidan**, sun’iy intellektning ta’siri, takomillashuvi yoki ish yuzasidan qaror qabul qilish jarayonida noxolis yondashish orqali tengsizlikni keltirib chiqarishi mumkinligidir. Chunki, algoritmlar tizimiga nomunosib ishchilar bilan bir vaqtida jinsi, irqi, millati va boshqa himoya qilinadigan xususiyatlari mavjud xodimlar yuzasidan ham taxminlarni birdek ishlab chiqadi. Bu



holatda xavf shundan iboratki, diskriminatsiya xususiyatiga ega natijalar sun'iy intellektning yuqorida keltirilgan toifadagi ishchilarga nisbatan "xolislik" va "betaraflik" kabi yanglish tushunchalar sababli e'tiborga olimmasdan qoladi [13]. **Ikkinchidan**, sun'iy intellekt bilan tanishuv ishchilarni uning ulkan miqyosdagi axborot makoniga tortib ketishi, ma'lumotlarning zaifligi va g'ayrioddiy qaror qabul qilish kabi holatlar bilan to'qnashtiradi. Ishchilar o'z kasblari yuzasidan sun'iy intellektning mukammal imkoniyatlarini ko'rib o'zlarini ojiz his qilishadi, va buning natijasida ular o'zlarining "maslahatchilar" bilan foydali aloqaga kirishish yo'lini yo'qotib qo'yadilar [14]. Tushunarsiz qarorlar bilan bog'liq ulkan axborotlar bazasini to'plashga bo'lgan intilish ishchilarni qochib qutilib bo'lmaydigan axborotlar tuzog'iga tushirib qo'ygandek his qilishlariga undaydiki, buning natijasida insonlarning huquqlari cheklanishi hamda ushbu omilga tayangan mehnat jarayoni zarar ko'rishi mumkin.

Sun'iy intellekt imkoniyatlaridan mehnat kuchi izlash, ishga yollash va xodimlarning lavozimini oshirish uchun qaror qabul qilish jarayonida ish beruvchi tomonidan foydalanilishi ishchi kuchi imkoniyatlarini aniqlashda katta ta'sirga ega bo'lishiga ko'maklashadi. Ushbu texnologiyalarning asosiy maqsadi xodimlar boshqaruvi jarayonini adolatli va diskriminatsiyadan xalos qilish sifatida belgilangan. Inson omiliga ko'ra qaror qabul qilish ba'zi hollarda etnik kamchilik vakili bo'lganlar, ayollar va nogironligi borlar zarariga ishlovchi aniq va noaniq bo'lgan tarafkashlikka yo'l qo'yishi mumkinligini hisobga olsak, texnologiya ushbu inson omilining salbiy tomonini yo'qotishga yordam berishi mumkin [15].

Ularning betaraflik va xolislik sifatlari bo'lishiga qaramasdan, sun'iy intellekt tizimlari insonlarning ushbu noxolisligini oshirib berishi yoki umuman yangi turdag'i noxolislik shakllarini ishlab chiqishi mumkinligini utuntmaslik kerak. Bularning barchasi qanchalik ko'p qurilmalarni ishlab chiqarish va ular ustida ishlashga bog'liqidir. Tadqiqotlar bir qancha algoritmik noxolisliklarga misollarning mavjudligini ko'rsatadi. Misol uchun, internet qidiruv tarmog'idan qora ro'yxatda turuvchi shaxslar haqida ma'lumot izlasangiz katta ehtimol bilan hibsga olingan shaxslarni ham ko'rsatib berishi, yoki sodir etgan jinoyati uchun oqlanganlar haqida ma'lumot izlasangiz umuman jinoyat sodir etmagan shaxslarni ko'rsatib berish holatlari ham uchramoqda. Boshqa bir mashhur bo'lgan holatga to'xtalsak, Amazon kompaniyasi dasturlash sohasida lavozimni oshirishga munosib nomzodlarni saralab beruvchi algoritim yaratish ustida ish olib borgan edi, lekin ishlab chiqilgan elektron tizim nomzodlarni saralash jarayonida malakali ayollarning lavozimini oshirishning o'rniga, ularga past baho berishi holati ortidan loyiha to'xtatildi [16].

Muhim jihat shundaki, bu kabi diskriminatsiya turlari sodir bo'lishining oldini olish, shunchaki, irq va jins kabi himoya qilinadigan omillarni yaratilayotgan algoritmlardan olib tashlash bilan osongina amalga oshirib bo'lmaydi. Balki, sun'iy intellekt tizimlari katta hajmdagi axborotlarni to'plash orqali yaratilib, ular ushbu himoya qilinadigan toifadagi odamlarning boshqalarga suyanib harakatlanishlariga chek qo'yishi mumkin. Misol uchun, juda ko'plab aholi yashash joyida turli xil irq va millatlarga mansub odamlar birgalikda hayot kechirib, turli sohalarda o'zaro munosabatga kirishishi tabiiy jarayon. Lekin, algoritmlarning pochta indeksiga tayangan holda aynan o'sha odamlarning orasidan nomzodlarni saralashi irqiy ozchilik bo'lgan jamoa vakillarini kamsitishga olib kelishi mumkin. Bu holat, balki, aniq maqsadni ko'zlab ma'lum guruhlarni yoki toifalarni rad qilish uchun ishlatishda qo'l kelishi mumkin, lekin, maqsadsiz ushbu vositalardan foydalanish holati kutilmagan natijalarga olib kelish ehtimoli ham yuqori turadi. Tabiiy ehtiyojdan kelib chiqib muayyan turdag'i mahsulotlarni iste'mol qilish sog'liq bilan bog'liq holatlarni keltirib chiqarishi mumkin, bu holatlar esa algoritmi ushbu vaziyatga tushgan xodimni xattoki, nogiron sifatida ham belgilashi va buning oqibatida ish beruvchining xabardor ekanligiga qaramay xodimga nisbatan diskriminatsiya sodir bo'lishiga olib kelish xavfi yuqori bo'lib qoladi.

Yuqorida keltirib o'tilgan masalalar sun'iy intellektdan keng qamrovda foydalanish jarayoni kechayotgan bugungi kunda qonunchilik tizimidagi jinoyat, fuqarolik, mehnat, moliya va xalqaro huquq kabi zaruriy huquq sohalarida sun'iy intellekt va robotlar bilan insonlar o'rtasidagi munosabatda inson huquq va erkinliklarini ta'minlovchi huquq normalarini ishlab chiqish va tadbiq qilish zarur.



**Xulosha.** Ushbu tadqiqot ishida ko‘rilgan masalalar, sun’iy intellekt va robotlar bilan kechadigan mehnat jarayonida xodimlarning inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, ularni irqiy, jinsiy va shu kabi boshqa individual xususiyatlarini teng qabul qilinishini nazorat qilish va amalga oshirishda tizimli huquqiy yechimlarni ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Albatta, mazkur jarayonda biz yuqorida qayd etib o‘tganimizdek, nafaqat yangi normativ-hujjatlar va qonunlarni yaratish, qolaversa, yetarli darajada qo‘llanilmayotgan mavjud huquqiy vositalardan samarali foydalanish ustida izlanish olib boorish zarur. Chunki, insonning huquq va erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmati oliv tushuncha hisoblanib, keyinchalik yaratiladigan har qanday tartibga soluvchi va amalga oshiruvchi vositalar avvalo ushbu huquqlarni ro‘yobga chiqarish asosiga qurilmog‘i kerak. Zero, har qanday yangi texnologiyalar, ishlab chiqarishdagi muvaffaqiyatli yutuqlar insonga, uning hayotini yengillashtirishga xizmat qilmas ekan, ularning odamzot oldida qadri bo‘lmaydi.

Bugungi rivojlangan iqtisodiy jarayonlar ta’sirida ko‘plab ish beruvchilar bu eng muhim omilni unutib, yoki e’tibor bermasdan o‘z faoliyatlarida moddiy manfaat topishga urg‘u berayotganligi ham sir emas. Bizning mazkur ilmiy ishimiz natijasiga ko‘ra, aynan shu kabi holatlarni hukumatlar va xalqaro tashkilotlar doirasida tartibga solish, ularga rioya qilinishini ta’minlash va ta’sir choralarini qo‘llashning huquqiy asoslarini yaratish zarurati mavjud.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 14.10.2024 yildagi PQ-358-son <https://www.lex.uz/uz/docs/-7158604>
2. Arief Budiono, Absori, Kelik Wardiono, Wardah Yuspin, Said Saidakhrarovich Gulyamov, “Cyber Indoctrination Victims in Indonesia and Uzbekistan: Victim Protection and Indoctrination in Practice”, Journal of Human Rights, Culture and Legal System, Vol. 3, No. 3, November 2023, pp. 441-475 [https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract\\_id=4682489](https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=4682489)
3. Gabriela Ramos, Assistant Director-General for Social and Human Sciences of UNESCO, <https://www.unesco.org/en/artificial-intelligence/recommendation-ethics>
4. Daniel Noyes Kirby Professor of Law, Washington University School of Law, St.Louis, Missouri
5. Keith A. Markel, Alana R. Mildner and Jessica L. Lipson, “AI and employee privacy: important considerations for employers” <https://www.reuters.com/legal/legalindustry/ai-employee-privacy-important-considerations-employers-2023-09-29/>
6. Liability for Artificial Intelligence and other emerging digital technologies, Report from the Expert Group on Liability and New Technologies – New Technologies Formation, p-5 [https://www.europarl.europa.eu/meetdocs/2014\\_2019/plmrep/COMMITTEES/JURI/DV/2020/01-09/AI-report\\_EN.pdf](https://www.europarl.europa.eu/meetdocs/2014_2019/plmrep/COMMITTEES/JURI/DV/2020/01-09/AI-report_EN.pdf)
7. Ashley Deeks, The Judicial Demand for Explainable Artificial Intelligence, 119 Colum. L. Rev. 1829, 1832 (2019) [https://www.jstor.org/stable/26810851?read-now=1&seq=4#page\\_scan\\_tab\\_contents](https://www.jstor.org/stable/26810851?read-now=1&seq=4#page_scan_tab_contents)
8. The Privacy Expert’s Guide to Artificial Intelligence and Machine Learning, (October, 2018) [https://fpf.org/wp-content/uploads/2018/10/FPF\\_Artificial-Intelligence\\_Digital.pdf](https://fpf.org/wp-content/uploads/2018/10/FPF_Artificial-Intelligence_Digital.pdf)
9. Joh, Elizabeth E., Artificial Intelligence and Policing: Hints in the Carpenter Decision (August 24, 2018). Ohio State Journal of Criminal Law, 2018, Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=3238212>
10. Yuspin, Wardah, Kelik Wardiono, Arief Budiono, and Said Gulyamov. “The law alteration on artificial intelligence in reducing Islamic bank’s profit and loss sharing risk”. Legality: Jurnal Ilmiah Hukum 30, no. 2 (2022): 267-282. [https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract\\_id=4686003&download=yes](https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=4686003&download=yes)



11. Avliyoqulov Bekmirza, "Navigating the Legal Landscape of Robots and AI in the Workplace: Challenges and Solutions", Uzbek Journal of Law and Digital Policy | Volume:1 Issue: 3 <https://irshadjournals.com/index.php/ujldp/article/view/88>
12. Li Adik Aleksandrovich, "Cyber Law: Addressing Legal Challenges in the Digital Age", Uzbek Journal of Law and Digital Policy | Volume: 1 Issue: 3 <https://irshadjournals.com/index.php/ujldp/article/view/92>
13. Dave Gershgorn, "Companies are on the hook if their hiring algorithms are biased", Quartz, October 22, 2018, <https://qz.com/1427621/companies-are-on-the-hook-if-their-hiring-algorithms-are-biased>
14. Ifeoma Ajunwa, Kate Crawford, and Jason Schultz, Limitless Worker Surveillance, 105 Cal. L. Rev. 735 (2017). [https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract\\_id=2746211](https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=2746211)
15. Jerry Kang, Kristin Lane, "Seeing Through Colorblindness: Implicit Bias and the Law", June 2010 UCLA law review. University of California, Los Angeles. School of Law 58(2) [https://www.researchgate.net/publication/228189953\\_Seeing\\_Through\\_Colorblindness\\_Implicit\\_Bias\\_and\\_the\\_Law](https://www.researchgate.net/publication/228189953_Seeing_Through_Colorblindness_Implicit_Bias_and_the_Law)
16. Jeffrey Dastin, "Insight - Amazon scraps secret AI recruiting tool that showed bias against women", October 11, 2018 <https://www.reuters.com/article/world/insight-amazon-scaps-secret-ai-recruiting-tool-that-showed-bias-against-women-idUSKCN1MK0AG/>

